

## Article

# Analysis of advanced foreign experience in the field of crime prevention and issues of its implementation in national legislation and practice

Ruftullo O. NIGMATOV <sup>1†</sup> 

<sup>1</sup> PhD, professor, Deputy Head of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, 100197, Uzbekistan

\* Correspondence:

† Current address: Affiliation.

‡ These authors contributed equally to this work.

**Abstract:** This study analyzes the examination of international experiences in crime prevention and their implementation in Uzbekistan's national legislation and practice. The importance of ongoing reforms in New Uzbekistan aimed at ensuring public safety and combating crime is emphasized.

**Materials and methods of research:** The research utilizes methods of legislative analysis, statistical data review, and the study of international practices. Successful crime prevention strategies from countries such as Andorra, the UAE, Qatar, and Japan were examined.

**Results of the study and Conclusion:** It has been identified that the rule of law, a "zero tolerance" policy, digital security, and public cooperation are effective measures in reducing crime. The significance of ensuring public safety, strengthening police-community collaboration, and implementing digital security technologies in Uzbekistan has been substantiated. Based on international experience, recommendations have been developed to improve Uzbekistan's crime prevention strategy. In particular, it is proposed to adopt a new law "On Public Safety," strengthen punitive measures against corruption-related offenses, and enhance international cooperation. Legal and institutional reforms based on global experience contribute to reducing crime, ensuring public safety, and strengthening the rule of law in Uzbekistan.

**Keywords:** crime, public safety, rule of law, international experience, "zero tolerance" policy, digital security, police-community cooperation, anti-corruption measures, crime prevention, legal reforms.

## 1. Introduction (Kirish)

So'nggi yillarda yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar doirasida aholining tinch, osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarnı "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili (1) asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi, desak hech mubolag'a bo'lmaydi.

Shu o'rında jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi, osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun" (1), degan ustuvor g'oya asosida yanada takomillashtirish davr talabiga aylanmoqda. Bugungi kunda mamlakatda O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" (2) gi, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" (3) gi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida (4) belgilangan vazifalar ijrosini tashkil etish, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish bo'yicha faoliyatni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish hamda jinoyatlarning omillarini o'z vaqtida bartaraf etish orqali ularni barvaqt oldini olish natijadorligini oshirish maqsadida Prezident Sh.Mirziyoevning "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan

**Citation:** Ruftullo O. NIGMATOV. . .  
*LEGAL WORLD* 2025, 1, 139–148. <https://>

Received: 10.01.2025

Revised: 18.01.2025

Accepted: 25.02.2025

Published: 10.03.2025

**Copyright:** © 2025 by the authors.  
Submitted to *LEGAL WORLD* for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).

yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-10-son Farmoni (5) qabul qilinganligi fikrimiz tasdig'idir.

## **2. Materials and Methods: (Materiallar va usullar)**

Tadqiqot oby'ekti – jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish va uni O'zbekiston milliy qonunchiligi hamda amaliyotiga joriy etish masalalaridir.

Tadqiqotning metodologik asosi – qonunchilikni tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va xalqaro tajribani tahlil qilish. Tadqiqot doirasida Andorra, BAA, Qatar va Yaponiya kabi davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurash strategiyalari o'rganilgan.

Tadqiqot predmeti – turli mamlakatlarning jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha muvaffaqiyatli strategiyalarini o'rganish va ularning O'zbekiston qonunchiligi, amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlarini tahlil qilish.

Tadqiqot davomida quyidagi usullardan foydalanildi:

### **1. Qiyosiy tahlil.**

– xorijiy davlatlarning jamoat xavfsizligi va jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha qonunchiligini qiyosiy taqqoslash;

– O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar (Andorra, BAA, Qatar, Yaponiya) yondashuvlarini farqlash;

– xalqaro muvaffaqiyatli va samarali tajribalarni (masalan, "nol tolerantlik" siyosati) tahlil qilish.

### **2. Nazariy tahlil.**

– jinoyatchilikni boshqarish bo'yicha ilmiy konsepsiya va modellarning o'rganilishi;

– "nol tolerantlik" va profilaktik huquqni qo'llash nazariyalari;

– jinoyatchilikka qarshi kurash va raqamli xavfsizlikni tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza tahlili.

### **3. Tizimli yondashuv.**

– jinoyatchilikka ta'sir qiluvchi iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy omillar o'zaro bog'liqligi;

– raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarning xavfsizlikni ta'minlashdagi roli;

– korrupsiyaning jinoyatchilik o'sishiga ta'siri va uni oldini olish mexanizmlari.

### **4. Empirik usul.**

– turli mamlakatlardagi jinoyatchilik statistik ma'lumotlari;

– muvaffaqiyatli islohotlarning real misollarini o'rganish;

– amaliyotda qo'llanilgan choralar samaradorligi (masalan, politsiyada raqamli texnologiyalar joriy etilgandan keyin jinoyatchilikning kamayishi).

### **5. Umumlashtirish usuli.**

– taqqoslash, nazariy va empirik tahlillar natijalarini umumlashtirish;

– jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha asosiy tendensiyalarni o'rganish;

– O'zbekistonda jamoat xavfsizligi tizimini isloh qilish yo'nalishlarini aniqlash.

## **3. Results: (Tadqiqot natijalari)**

Haqiqatdan ham mamlakatda har qanday sohaning rivojini ilmiy tadqiqotlarsiz tasavvur etish qiyin. Chunki ilmiy izlanishlar jarayonida nafaqat sohaning taraqqiyotiga o'z hayotini bag'ishlagan xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari, balki rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasida belgilab qo'yilgan me'yorlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish asosida puxta takliflar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Xususan, 2024-yilning 9 oyi davomida yangi O'zbekistonda jami 52 084 ta jinoyat sodir etilgan bo'lib, hududlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahar (11 417 ta) va Farg'ona (7027 ta), Toshkent (6286 ta) va Samarqand (4144 ta) viloyatlariga to'g'ri kelgan.

Shuningdek, jinoyat turlari kesimida o'rganilganda eng yuqori ko'rsatkich o'g'rilik (9316 ta), giyohvandlik (9209 ta), firibgarlik (5926 ta) va axborot texnologiyalari orqali sodir etilgan (3089 ta) jinoyatlardir. Mazkur jinoyat turlari hududlar kesimida tahlil qilinganida eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida sodir etilgani aniqlangan. (Ma'lumot uchun, 2022-yilda respublika bo'yicha sodir etilgan jinoyatlarning umumiy ko'rsatkichi 105 215 tani, 2023-yilda esa 104 096 tani tashkil etgan)(6).

“Global Peace Index – 2024” ma’lumotiga ko‘ra(6), 2024-yil davomida 146 ta davlatlar ishtirokida dunyoning turli mamlakatlarida istiqomat qiluvchi va tashrif buyuruvchi fuqarolarning jinoyatchiliklardan (kunduzi va kechki sayr qilish vaqtida xavfsiz his qilishi; talonchilik, transport vositalarini olib qochish va jismoniy zo‘ravonlikka uchrash ehtimoli; diskriminatsiya va xavfsizlikka tahdidlar) o‘zlarini qay darajada xavfsiz his qilishlari o‘rganilgan (7).

Mazkur o‘rganishlar natijasiga ko‘ra, 2024-yilda sodir etilgan huquqbuzarliklar ko‘rsatkichining pastligi, mamlakatda qonun ustuvorligini ta’minlash darajasi va jamoat tartibini saqlash samaradorligi yuqoriligi bilan Andorra (87,1 ball), Birlashgan Arab Amirliklari (84,2 ball), Qatar (84 ball), Tayvan (83,3 ball), Ummon (80,9 ball), Man oroli (79,8 ball), Armaniston (78,4 ball), Gonkong (78,1 ball), Yaponiya (77,3 ball) va Singapur (76,5 ball) kabi davlatlar kiritilgan bo‘lsa, aksincha huquqbuzarliklar ko‘paygan, siyosiy noaniqlik kuchaygan, hukumat nazorati zaif va xavfsizlik organlari samarasiz ishlayotgan dunyodagi eng xavfli davlatlariga Venesuela (18,7 ball), Papua-Yangi Gvineya (20,3 ball), Afg‘oniston (21,7 ball) kabi davlatlar kiritilgan. Bundan tashqari, dunyodagi eng xavfli, asosan xalqaro yoki fuqarolik urushi avj olgan, harbiy to‘ntarishlar yoki samarasiz qonunchilik tufayli siyosiy beqarorlik hukm surayotgan davlatlar deb Gaiti (22,1 ball), Janubiy Afrika Respublikasi (24,6 ball), Gonduras (26,5 ball), Trinidad va Tobago (29,2 ball), Suriya (30,8 ball), Yaman (31,4 ball) va Yamayka (32 ball) kabi mamlakatlar tan olingan.

“Global Peace Index – 2024” ma’lumotiga ko‘ra, yangi O‘zbekistonda fuqarolarning kunduzi va kechasi sayr qilishda o‘zlarini xavfsiz his qilishlari, talonchilik, transport vositalarini olib qochish va jismoniy zo‘ravonlikka uchrash ehtimoli, shuningdek, mamlakatdagi diskriminatsiya hamda xavfsizlikka tahdidlar kabi mezonlar bo‘yicha 32 (68,8 ball) o‘rinni egallagan (8).

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan kelib chiqib, Tinchlik va iqtisodiyot instituti (Institute for Economics and Peace, IEP) hamda Sidney Universitetining tinchlik va mojarolarni o‘rganish markazi tomonidan 2024-yil yakuniga ko‘ra dunyo mamlakatlari orasida “zo‘ravonlik va jinoyatchilik darajasi”, “harbiy xarajatlar va militarizatsiya darajasi”, “ichki va xalqaro nizolarning mavjudligi” hamda “siyosiy barqarorlik va huquq-tartibot tizimi” kabi indikatorlar bo‘yicha eng xavfsiz davlat deb tan olingan Andorra, Birlashgan Arab Amirliklari, Qatar, Tayvan, Ummon, Man oroli, Armaniston, Gonkong, Yaponiya va Singapur kabi mamlakatlarning ijobiy tajribalarini hamda chorijiy huquqshunos olimlarning jinoyatchilikni oldini olish bilan bog‘liq nazariy qarashlarini ilmiy jihatdan o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Xususan:

Andorra davlatining zamonaviy xavfsizlik tizimi — Yevropaning eng xavfsiz davlatlaridan biri hisoblanadi. Bu davlatda jinoyatchilik darajasi juda past bo‘lib, bu uning kuchli huquqiy tizimi, samarali jamoat xavfsizligi siyosati va jinoyat profilaktikasi choralari bilan bog‘liqdir. Mamlakat Ispaniya va Fransiya huquq tizimiga asoslangan qonunchilikni qabul qilgan, bu esa Yevropaning huquqiy normalariga mos keladi. Andora davlatida jinoyatchilikni oldini olish mamlakatda barqaror huquqiy tizim; politsiya va jamoatchilik hamkorligi; korrupsiyaga qarshi kurashishda amalga oshiriladigan chora-tadbirlarining qat‘iyiligi; mamlakatda siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning yuqoriligi; milliy va xalqaro hamkorlikdagi faoliyatning samaradorligi kabi faoliyatning yuqoriligidadir.

Mazkur davlatning huquqiy tizim va qonun ustuvorligi quyidagicha, xususan, Andorraning huquqiy tizimi — mamlakat Konstitutsiyasi (mamlakatdagi asosiy huquqiy hujjat bo‘lib, huquqiy tartibni saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashni kafolatlaydi), Jinoyat kodeksi (jinoyatlar uchun qat‘iy jazo choralari belgilangan) va “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunlari (davlat xizmatchilari va huquqni muhofaza qilish organlari ustidan qat‘iy nazoratning mavjudligi)dan iborat. Shuningdek, qonun ustuvorligi esa — nemis huquqshunosi va sotsiolog olimi Maks Veberning “Huquqiy davlat nazariyasi”ga ko‘ra, barqaror huquqiy tizim va huquqni muhofaza qiluvchi organlar samaradorligi jinoyatchilikni kamaytirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Endilikda Andora davlatida jinoyatlarni oldini olish yo‘nalishida amalga oshirilgan islohotlarni tizimli ketma-ketlika yoritib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Bularga:

birinchidan, kuchli huquqiy institut va shaffof sud tizimi — mazkur davlat Konstitutsiyasi bo‘yicha sud hokimiyati mustaqil hokimiyat deb e‘lon qilingan bo‘lib, barcha sud jarayonlari shaffof va tezkor o‘tkaziladi, shuningdek, jinoiy ishlarini ko‘rib chiqish muddatlari uzaytirilmaydi. Bundan tashqari, sudyalik lavozimiga tayinlov jarayonlari qat‘iy talablarga asoslangan shuningdek, mazkur

sudyalar mamlakatda nizolarni ko'rib chiqishda mediatsiya va alternativ sud jarayonlaridan samarali foydalanadilar;

ikkinchidan, politsiya organining faoliyati — mazkur davlatda politsiya organi mamlakatda jinoyatchilik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada kamayishiga George L. Kelling va James Q. Wilsonning "Shisha oyna nazariyasi" (9), Herman Heine Goldstining "Community Policing Theory" (10), David Lyonning "Sifrovizatsiya va xavfsizlik nazariyasi" (11), Gary Beckerning "Jinoyat va jazo iqtisodiyoti nazariyasi" (12) va Anthony Townsendning "Smart City Security Theory" (13) kabi xorijiy olimlarning nazariyalari asosida jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Jumladan, amerikalik iqtisodchi va nobel mukofoti sovrindori Gary Beckerning "Jinoyat va jazo iqtisodiyoti nazariyasi" ga ko'ra, agar jinoyat sodir etish narxi (jazo darajasi) yuqori bo'lsa, inson jinoyatdan voz kechadi. Shuningdek, sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan qat'iy javobgarlik tizimi mavjudligi jinoyatchilik darajasini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi, deydi. Shuningdek, George L. Kelling va James Q. Wilsonning "Shisha oyna nazariyasi" (14) bo'yicha esa, agar jamoat joylari va jinoyatga moyil hududlar doimiy nazoratda bo'lsa, jinoyatchilar jinoyat sodir etishdan voz kechadi degan g'oyasini ilgari surishgan. Bugungi kunda aynan Andora davlatining politsiya xodimlari mazkur nazariya haqiqat ekanligini o'z tajribalari bilan tasdiqlab kelmoqdalar. Bundan tashqari, Herman Heine Goldstine (10) ning "Jamoatchilik politsiyasi nazariyasi" ga (Community Policing Theory) ko'ra, mamlakatda jinoyatchilikni oldini olishda politsiya organi jamoatchilik kuchi (xizmati)dan foydalanishga o'z e'tiborini qaratib, nazariya asosida: har 1000 kishiga uchta politsiya xodimlarini jalb qilish; jamoat xavfsizligini ta'minlashda hududiy politsiya xodimlarini mahallalardagi fuqarolar bilan doimiy aloqada bo'lishi; fuqarolarni jinoyatlarni profilaktika qilishga jalb etish; tizimli ravishda jinoyatga moyil hududlar haqida axborot berish kabi qoidalarni amaliyotga singdirilganidir.

Shu o'rinda amerikalik sotsiolog David Lyon (12) o'zining "Sifrovizatsiya va xavfsizlik nazariyasi" da politsiya xodimlari mamlakatda jinoyatchilikni oldini olishda quyidagi tamoyillarni ustuvor qoida sifatida belgilashni tavsiya etgan. Bularga, a) raqamli kuzatuv va nazorat tizimlari (videokameralar va sun'iy intellekt orqali xavfsizlikni ta'minlash);

b) ma'lumotlar bazasini avtomatizatsiya qilish (jinoyatchilar haqidagi ma'lumotlarni saqlash va tahlil qilish imkoniyati); v) jamoat xavfsizligi uchun intellektual texnologiyalar (smart-shahar tizimlari, politsiyaning avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazasi va axborot texnologiyalarini joriy qilish); g) profilaktika va tezkor javob mexanizmlari (jinoyatchilik xavfini oldindan aniqlash va politsiya tomonidan tezkor choralar ko'rish) shular jumlasidandir.

Shuningdek, amerikalik urbanist va texnolog Anthony Townsend (15) esa mamlakatda jinoyatlarni oldini olish hamda jinoyat sodir etgan shaxslarning shaxsini tez aniqlash imkonini beruvchi "Smart-shahar xavfsizlik nazariyasi" (Smart City Security Theory) orqali politsiya xodimlari uchun qulaylik yaratuvchi "Zamonaviy texnologiyalarning samaradorligi haqida" gi konsepsiyani ishlab chiqish taklifini asoslantirgan. Bugungi kunda Andorra davlatida "Zamonaviy texnologiyalarning samaradorligi haqida" gi konsepsiya qabul qilingan bo'lib, ushbu konsepsiya asosida smart-shahar va xavfsizlik texnologiyalari rivojlantirilgan. Shuningdek, mamlakatda quyidagi chora-tadbirlar tizimli amalga oshirilgan. Bularga:

birinchidan, raqamli xavfsizlik va smart-shahar konsepsiyasi politsiya nazorati tizimi bilan integratsiya qilinganligi;

ikkinchidan, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash uchun intellektual svetoforlar va kameralar joriy qilinganligi;

uchinchidan, jamoat joylarida "Wi-Fi" va raqamli xavfsizlik monitoring tizimlarini o'rnatilganligi shular jumlasidandir.

Birlashgan Arab Amirliklarining zamonaviy xavfsizlik tizimi — mazkur davlat dunyodagi eng xavfsiz davlatlardan biri hisoblanadi. Bu natija qat'iy qonunchilik, samarali huquq-tartibot organlari, zamonaviy xavfsizlik texnologiyalari va korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari orqali amalga oshirilgan. BAAda jinoyatchilik ko'rsatkichi juda past, chunki davlat huquqiy tizimni mustahkamlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha keng islohotlar o'tkazgan. Xususan, jinoyatchilikni oldini olishda qat'iy huquqiy tizim, "nol tolerantlik" siyosati va jinoyatlarga nisbatan muqarrar jazo siyosati

orqali erishilgan. BAA hukumati jinoyatchilik darajasini kamaytirish va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida qonunchilik islohotlarini muntazam ravishda takomillashtirib boriladi. Bularga:

birinchidan, jinoyat kodeksi (Federal Penal Code) – BAA jinoyat kodeksi ilk bor 1987 yilda qabul qilingan va 2022-yilda to‘liq qayta ko‘rilgan. Bu kodeks milliy xavfsizlikni ta‘minlash, jinoyatchilikni oldini olish va sud tizimini takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan. Mazkur kodeksda jinoyatlar og‘ir jinoyatlar (terrorizm, giyohvand moddalar savdosi, odam o‘ldirish, jinsiy zo‘ravonlik, odam savdosi), o‘rtacha og‘irlikdagi jinoyatlar (korrupsiya, noqonuniy qurol saqlash, davlat sirlarini oshkor qilish), ma‘muriy huquqbuzarliklar (firibgarlik, ommaviy tartibsizliklar, qonunbuzarliklarga yordam berish) kesimida klassifikatsiya qilingan;

ikkinchidan, BAAda “nol tolerantlik” siyosati(16) rasman qonunchilikka kiritilgan. Shuningdek, 2022-yilda “nol tolerantlik” siyosatidagi islohotlar natijasida hatto mayda huquqbuzarliklarga nisbatan ham qattiq choralar ko‘rila boshlandi. Jumladan:

og‘ir jinoyatlar turkumiga – terrorizm (o‘lim jazosi yoki umrbod qamoq), qasddan odam o‘ldirish (o‘lim jazosi yoki umrbod qamoq) va giyohvand moddalar savdosi (25 yildan umrbod qamoqqacha yoki o‘lim jazosi) kabi jinoyat turlari kiritilgan bo‘lib, ularga keskin jazo choralari ko‘rilganligi;

ma‘muriy va oddiy jinoyatlar turkumiga esa – jamoat tartibini buzish, hurmatsizlik va tartibsizliklar (6 oydan 5 yilgacha qamoq yoki katta miqdordagi jarima), qurol saqlash va noqonuniy foydalanish (10 yildan umrbod qamoq jazosi) va yolg‘on xabarlar tarqatish yoki davlatni obro‘sizlantirish (1 yildan 5 yilgacha qamoq yoki katta jarima) kabi jinoyatlar kiritilgan bo‘lib, ularga nisbatan qattiq jazo choralari qo‘llaniladi.

Ma‘lumot uchun: BAAda giyohvand moddalar savdosi bilan shug‘ullangan shaxslarga minimal miqdori 200 000 dirhamdan boshlanadigan jarima, umrbod ozodlikdan mahrum qilish yoxud o‘lim jazosi, shuningdek, terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlar uchun esa 90 foiz hollarda umrbod qamoq yoki o‘lim jazosi qo‘llaniladi. Qurolli hujum, odam o‘ldirish jinoyatlari uchun esa 85 foiz hollarda o‘lim jazosi beriladi.

Qatar davlati — mazkur davlat dunyodagi eng xavfsiz davlatlardan biri bo‘lib, bu qat‘iy huquqiy tizim, kuchli politsiya nazorati, jamoatchilik hamkorligi va raqamli xavfsizlik choralari orqali ta‘minlangan. Shuningdek, mazkur davlatda Britaniyalik huquqshunos John Austinning “Huquqiy pozitivizm nazariyasi”(17)ga asosan qonun ustuvorligini ta‘minlash, jinoyatchilikni oldini olish va jamoat xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan bir qator islohotlar olib bormoqda.

Xususan, Qatar davlatida jinoyatchilikni oldini olish maqsadida “qat‘iy huquqiy tizim va og‘ir jazo”, “korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash”, “jamoatchilik nazorati va politsiya bilan hamkorlik”, “kiberxavfsizlik va raqamli xavfsizlik”, “terrorizm va giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurash” kabi qat‘iy chora-tadbirlar amalga oshirilib, aniqlangan huquqbuzar shaxslarga xalqaro standartlarga mos keladigan va an‘anaviy huquq normalari bilan uyg‘unlashtirilgan “Qatar jinoyat kodeksi” (Qatar Penal Code)(18), “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi (Qatar Anti-Corruption Law), “Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi (Qatar Economic Crimes Law), “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi (Qatar Cybersecurity Law)(19) va “Terrorizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi (Qatar Anti-Terrorism Law)(20) qonunlar asosida og‘ir jazo choralari qo‘llanilmoqda. Bularga:

odam o‘ldirish va terrorizm jinoyati uchun o‘lim yoki umrbod qamoq jazo chorasi;  
giyohvand moddalar savdosi jinoyati uchun 25 yildan ortiq umrbod qamoq yoki o‘lim jazosi;  
korrupsiya(33) va iqtisodiy jinoyatlar uchun 10 yildan 25 yilgacha qamoq, juda katta miqdorda jarima);

jamoat tartibini buzish va politsiya xodimini qonuniy talablarini bajarmaganlik uchun 6 oydan 5 yilgacha qamoq jazosi;

kiberhujumlar va axborot xavfsizligiga tahdid jinoyatlari uchun 15 yildan 25 yilgacha qamoq yoxud juda ko‘p miqdorda jarima jazolari shular jumlasidandir.

Qatar davlatida taniqli kriminolog va huquqshunos olim Herman Goldsteinning “Community Policing Theory” nazariyasi asosida mamlakatda jamoatchilik va politsiya o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik munosabatlari yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur nazariya James Q. Wilson va George L. Kelling (14) ning “Broken Windows Theory” deb nomlangan nazariyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, mazkur nazariyalar o‘zida quyidagi prinsiplarni mujassam etgan. Bularga:

birinchi, politsiya va jamoatchilik hamkorlikda ishlash lozimligi (aholi xavfsizlikni ta'minlashda politsiya bilan hamkorlik qilishi lozim);

ikkinchi, jinoyatchilikni aniqlashdan ko'ra, uning oldini olish muhimligi (politsiya profilaktik tadbirlarga e'tibor qaratish lozimligi);

uchinchidan, jamiyat politsiyani nazorat qilishi va jamoat xavfsizligida faol ishtirok etishi kerakligi;

to'rtinchidan, har bir hududda jinoyatchilik tahdidlariga mos ravishda politsiya strategiyalari ishlab chiqilishi zarurligi;

beshinchidan, politsiya xodimlari jinoyat sodir bo'lishiga sabab bo'ladigan ijtimoiy muammolarni aniqlash va hal qilishga yo'naltirilgan bo'lishi lozimligi kiradi.

Qatar davlatida yuqorida qayd etilgan nazariya va prinsiplar asosida mamlakatda jinoyatlarni oldini olish yoxud sodir etilgan jinoyatlarni tezkorlik bilan fosh etish maqsadida quyidagi usullarda jamoatchilik nazorati bilan politsiya organlari o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabatlari yo'lga qo'yilgan. Xususan:

a) "Smart Policing System" (Aqlli politsiya tizimi) – jamoatchilik jinoyatlarni mobil ilovalar orqali politsiyaga xabar qilishi mexanizmi;

b) har bir shaharda jamoat politsiyasi va qo'riqchilar tizimining mavjudligi;

v) jamoat joylarida videonazorat va sun'iy intellekt tizimlarini o'rnatilganligi;

g) jinoyatlarga qarshi kurashishda jamoatchilik va politsiya hamkorligi ta'minlanganligida namoyon bo'ladi.

Bu yerda jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini birgina mazkur davlatning Ichki ishlar vazirligi tomonidan berilgan quyidagi ma'lumotidan ham bilish mumkin. Xususan, 2024-yilning 6 oyi davomida Qatar davlatiga 2 639 000 nafar safar sayyoh tashrif buyurgan bo'lib, mazkur ko'rsatkich 2022-yil mobaynida mamlakatga tashrif buyurgan sayyohlarning umumiy soniga to'g'ri kelgan. Agar mazkur sayyohlarni davlatlar kesimida taqsimlasak, Saudiya Arabiston (29 foiz), Hindiston (8 foiz), Bahrayn (5 foiz), Quvayt (4 foiz), Umon (4 foiz), Germaniya (4 foiz), AQSH (3 foiz), BAA (3 foiz), Italiya (2 foiz) kabi davlatlarga to'g'ri kelganini ko'rishimiz mumkin (22).

"Qatar Tourism" tashkiloti rahbarining ta'kidlashicha, Qatar 2030-yilga qadar sayyohlar sonini yiliga 6 mln. kishiga, turizmning YaIM dagi hissasini esa 7 foizdan 12 foizga ko'tarishini rejalashtirgan (23). Mazkur ma'lumotlardan bilish mumkinki, Qatar davlatida "Smart-shahar xavfsizlik nazariyasi" bo'yicha, shahar infratuzilmasini raqamlashtirilganligi shuningdek, mamlakat xavfsizlik tizimlari bilan bog'langanligi Qatar davlatida jinoyatchilikni kamaytirishga xizmat qilgan.

Yaponiya davlati — mazkur davlat dunyoda jinoyatchilik ko'rsatkichi eng past davlatlardan biri bo'lib, bunga sabab mamlakatda jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan chara-tadbirlar, ularning huquqiy asoslari va jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining yuqori darajada ekanligida namoyon bo'ladi. Yaponiya davlatida jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikni oldini olish maqsadida 1968-yilda Gary S. Becker tomonidan ilgari surilgan "Jinoyat va jazo iqtisodiyoti" nazariyasidan(39) foydalanib, hukumat tomonidan qator qonunlar, hukumat strategiyalari va xalqaro konvensiyalar qabul qilgan. Bular:

birinchidan, Yaponiya davlatining jinoyat kodeksi (Penal Code of Japan) mamlakatda huquq-tartibotni ta'minlash va jinoyatchilikni oldini olish uchun asosiy huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Mazkur hujjat 1907-yilda qabul qilingan bo'lib, quyidagi ta'sir choralari o'zida qamrab olgan. Mazkur kodeksga ko'ra:

Death Penalty (O'lim jazosi) – inson o'ldirish, terrorism, uyushgan jinoyatchilik va davlatga qarshi og'ir jinoyatlar uchun qo'llaniladi;

Life Imprisonment (Umrbod qamoq) – inson huquqlariga qarshi og'ir jinoyatlar va qayta jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan belgilangan;

Heavy Fines (ko'p miqdordagi jarimalar) – iqtisodiy jinoyatlar, korrupsiya va giyohvand moddalar muomalasi bilan bog'liq holatlarda jarimalarning maksimal miqdori oshirilgan;

ikkinchidan, mamlakatda jinoyatchilikni oldini olish va ularga qarshi kurashish maqsadida "Code of Criminal Procedure"(25), "Anti-Organized Crime Law"(26) (Yakudza va boshqa uyushgan jinoyatchilik guruhlariga qarshi kurashishga qaratilgan), "Narcotics Control Act, 1953"(27) (giyohvand moddalarni saqlash, tarqatish yoki ishlab chiqarish bilan bog'liq har

qanday munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan), “Financial Crimes Control Act”, (2020)(28) (firibgarlik, pul yuvish (money laundering) va korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan), “Criminal Justice Reform Act”(29) (jinoyat ishini tergov qilish jarayonlarini tezlashtirish, shaffoflikni oshirish va advokatlarning roli kuchaytirishga qaratilgan), “National Public Service Ethics Law” (davlat xizmatchilarini korrupsiyaga aralashishining oldini olish va ularning moliyaviy manfaatlarini cheklashga qaratilgan), “Cybersecurity Basic Act” (Kiberjinoyatlarga qarshi kurash, kiber hujumlarning oldini olish), “Anti-Terrorism Special Measures Law” (Xalqaro terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan), “Police Law of Japan” (politsiyani jamoatchilik bilan hamkorlikda ishlashi va profilaktik tadbirlarni kuchaytirishiga qaratilgan), “Community Policing Strategy”(30) (politsiya strategiyasi jinoyatlarning oldini olishga yo‘naltirilgan) kabi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan;

uchinchidan, Yaponiya davlatida jamoat xavfsizligini ta‘minlash, jinoyatlarni oldini olish, fuqarolar va politsiya o‘rtasidagi ishonchli hamkorlikni o‘rnatish, hududdagi xavfsizlikni doimiy nazorat qilish va jinoyatchilarni tezkor aniqlash hamda ularni hibsga olish maqsadida German Goldshteynning “Jamoatchilik Politsiyasi Nazariyasi” asosida “Koban” (Kōban, ) tizimi ya‘ni mahalliy politsiya bekatlari joriy etilgandir.

#### **4. Discussion (Muhokama)**

Yuqorida keltirilgan Andorra, Birlashgan Arab Amirligi, Qatar va Yaponiya kabi davlatlarning ijobiy tajribasidan kelib chiqib, yangi O‘zbekistonda jinoyatchilikni oldini olish va jamoat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha huquqiy hisoblangan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni va “Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi” kabi normativ-huquqiy hujjatlarga quyidagi takliflar ilgari suriladi:

birinchidan, O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashishda huquqiy asoslardan biri bo‘lib, u jinoyatchilikni oldini olish choralari belgilab beradi. Lekin, bu qonun xavfsizlik tizimini xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirish uchun yetarli emas. Shuning uchun Yaponiya davlatining “Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni (Public Security Act) politsiya va jamoatchilik hamkorligida jinoyatchilikni kamaytirishga yo‘naltirilgan ijobiy tajribasidan kelib chiqib, mamlakatda “Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida” yangi qonunni qabul qilish zarur.

Mazkur qonun mamlakatda jinoyatchilikka qarshi profilaktik tadbirlarning aniq va samarali tarzda tartibga solish, jinoyatlarning oldini olish strategiyasi, monitoring tizimi, raqamli xavfsizlik, jamoatchilik va huquqni muhofaza qilish organlari hamkorligi, transmilliy jinoyatlarga qarshi kurash mexanizmi kabi muhim jihatlarni o‘zida qamrab olishi lozim;

ikkinchidan, Yangi O‘zbekistonda jamoatchilik va politsiya o‘rtasida samarali hamkorlikni ta‘minlash, jamoat xavfsizligini saqlashda mahallalarning ishtiroki va mas‘uliyatini yanada oshirish maqsadida xorijiy olim German Goldshteynning “Community Policing Theory” nomli nazariyasi va Yaponiya davlatida amalda bo‘lgan “Kōban politsiya bekatlari” modelini milliy qonunchilikka implemetatsiya qilish asosida mamlakatda “Jamoatchilik bilan huquqni muhofaza qilish organlarining o‘zaro hamkorligi to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish lozim;

uchinchidan, Yangi O‘zbekistonda jazoning muqarrarligi siyosatini yanada kuchaytirish maqsadida xorijiy olim Geri Bekkerning jinoyat uchun jazo darajasi yuqori bo‘lsa va uning muqarrarligi ta‘minlansa, jinoyatchilik darajasi pasayadi, degan “Jinoyat va jazo iqtisodiyoti nazariyasi” va Birlashgan Arab Amirligi davlatining “nol tolerantlik” siyosatida ilgari surilgan ijobiy tajribasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida odam o‘ldirish, giyohvand moddalar savdosi, uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun jazo choralari keskin kuchaytirish maqsadga muvofiq;

to‘rtinchidan, bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni amalda bo‘lib, u korrupsiyaning oldini olish, uni fosh etish va korrupsiyaga qarshi tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan. Biroq jahonda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muvaffaqiyatli tajribaga ega bo‘lgan davlatlar qonunchiligini o‘rganish va milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiq ravishda yanada takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, rivojlangan Qatar davlatining “Qatar Anti-Corruption Law” va “Economic Crimes

Law” qonunlari korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi qat’iy chora-tadbirlarni joriy etishi bilan tanilgan. Shu bois mazkur qonunlarning “korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini kuchaytirish”, “iqtisodiy jinoyatlar uchun jazo choralari kuchaytirish”, va “korrupsiya xavfini oldindan aniqlash va monitoring qilish tizimini joriy etish” kabi ijobiy tajribalarini, shuningdek, xorijlik olimlar Jon Lokkning “qonunlar qat’iy va barqaror bo’lganda, davlat xizmatchilari korrupsiyaga moyillikdan voz kechadi, degan “Huquqiy davlat nazariyasi”” va Jon Ostinning “agar qonunlar qat’iy ijro etilsa va muqarrar jazo mavjud bo’lsa, korrupsiya darajasi pasayadi, degan “Huquqiy pozitivizm nazariyasi”” asosida O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining korrupsiya bilan bog‘liq normalari(52) da belgilangan jazo choralari kuchaytirish va muqarrarligini ta’minlash maqsadida:

a) korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlar uchun ko‘p miqdorda jarima yoxud ozodlikdan mahrum etish jazo muddatlarini kuchaytirish;

b) korrupsiya holatlari bilan bog‘liq jinoyatlar fosh etilganda sud jarayonlarini shaffof va ommaviy axborot vositalari orqali yoritish mexanizmlarini kuchaytirish lozim.

O‘zbekistonda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasini ishlab chiqish chora-tadbirlarini amalga oshirish. Xususan, “Transparency International” va BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha global dasturlari”ga qo‘shilish. Bunda:

- xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi standartlarni takomillashtirish;

- xalqaro tajribadan kelib chiqib, “Korrupsiyaga qarshi milliy strategiya”ni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

## 5. Conclusions: (Xulosalar)

Yangi O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Davlat va jamoatchilik hamkorligi asosida xavfsizlikni ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va qonun ustuvorligini mustahkamlash maqsadida yangi mexanizmlar joriy etilmoqda. Jinoyatchilik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va ularga qarshi samarali kurashishda xalqaro tajribalarni o‘rganish esa jinoyatchilikni kamayishida qo‘l kelishi tabiiy.

Shu bilan birga, jahondagi xavfsiz davlatlar, jumladan Andorra, BAA, Qatar va Yaponiyaning jinoyatchilikka qarshi muvaffaqiyatli tajribalari esa O‘zbekiston uchun o‘rnak bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, qonun ustuvorligi, "nol tolerantlik" siyosati, raqamli xavfsizlik, smart-texnologiyalardan foydalanish, jamoatchilik va politsiya o‘rtasidagi hamkorlik kabi usullarni joriy etish jinoyatchilik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish maqsadida Qatarining “Qatar Anti-Corruption Law” va “Economic Crimes Law” qonunlaridagi qat’iy choralaridan o‘rnak olish va O‘zbekistonning “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunini yanada takomillashtirish lozim. Jumladan:

korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlar uchun jazo choralari kuchaytirish;

sud jarayonlarini shaffoflashtirish va jamoatchilik nazoratini ta’minlash; korrupsiya xavfini oldindan aniqlash va monitoring qilish mexanizmlarini joriy etish.

Xalqaro standartlarga muvofiq, “Korrupsiyaga qarshi milliy strategiya”ni ishlab chiqish va “Transparency International” hamda BMTning korrupsiyaga qarshi dasturlariga qo‘shilish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda, huquqiy islohotlarni yanada takomillashtirish, jamoat xavfsizligini ta’minlashda yangi texnologiyalarni joriy etish va qonun ustuvorligini mustahkamlash zarur. Bu, o‘z navbatida, mamlakatning jahondagi eng xavfsiz davlatlar qatoridan o‘rin olishiga xizmat qiladi.

## Author Contributions:

### Nigmatov R. O

– Ishning barcha jihatlarini uchun javobgar bo‘lishga rozilik bildirilgan va taqdim etilgan tadqiqot ishining har qanday qismini puxta va vijdonan bajarish bilan bog‘liq masalalar o‘rganilgan va hal qilingan.

**Funding:** Tadqiqot ishi moliyalashtirilmagan.

**Institutional Review Board Statement:** Tadqiqot ishi barcha standartlarga muvofiq amalga oshirilgan. Tadqiqot protokoli axloqiy qo'mita tomonidan tasdiqlangan

**Informed Consent Statement:** Tadqiqotda boshqa mualliflar ishtirok etmagan

**Data Availability Statement:** Tadqiqotda taqdim etilgan asl materiallar maqolaga kiritilgan. Muallifga qo'shimcha so'rovlar yuborilishi mumkin.

**Conflicts of Interest:** Manfaatlarga to'qnashuvi yuzaga kelmagan.

### References: (Adabiyotlar)

1. Mirziyoev Sh.M. "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"ni PF-27-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5749291>
2. O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi № O'RQ-576-son Qonuni // <https://nrm.uz>
3. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi № O'RQ-371-son Qonuni // <https://www.lex.uz/acts/2387357>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son Farmonining "Konsepsiyani amalga oshirish mexanizmlari" deb nomlangan 3-bob, 19-bandida "Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish" deb nomlangan ustuvor vazifa
5. Mirziyoev Sh.M. "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-10-son Farmoni
6. <https://global-relocate.com/ru/rankings/security-of-countries>
7. Global Peace Index 2024 (Samie bezopasnie strani v mire – 2024) Globalniy indeks mirolyubiya otrajet uroven bezopasnosti v raznix stranax. Etot reyting razrabotala mejdunarodnaya gruppy uchyonix Instituta mira vmeste s Sentrom mira i izucheniya konfliktov Sidneyskogo universiteta // <https://global-relocate.com/ru/rankings/security-of-countries>
8. <https://www.nur.kz/leisure/interesting-facts/1911962-odna-iz-samyh-bezopasnyh-stran-v-mire-gde-net-tyurem-i-zaprescheny-advokaty/>
9. George L. Kelling and James Q. Wilson "Broken Windows" The police and neighborhood safety // <https://www.theatlantic.com/magazine/archive/1982/03/broken-windows-/304465/>
10. Herman Heine Goldstinening "Jamoatchilik politsiyasi nazariyasi" (Community Policing Theory) politsiya va jamoatchilik hamkorligi jinoyatchilikni kamaytirishda hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi // <https://law.jrank.org>
11. <https://www.liquisearch.com/law-of-japan/law-enforcement>
12. David Lyon "Sifrovizatsiya va xavfsizlik" nazariyasi jinoyatchilikni kamaytirishda zamonaviy texnologiyalarning samaradorligi haqidagi konsepsiyani shakllantirgan. <https://translated.turbopages.org>
13. Anthony Townsend Smart cities need a new civic code to succeed // <https://www.wired.com/-story/smart-cities-need-a-newcivic-code-to-succeed> // "Smart-shahar xavfsizlik nazariyasi" (Entoni Taunsend) bo'yicha, shahar infratuzilmasini raqamlashtirish va xavfsizlik tizimlari bilan bog'lash jinoyatchilikni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi.
14. George L. Kelling and James Q. Wilson "Broken Windows" The police and neighborhood safety // <https://www.theatlantic.com>
15. Anthony Townsend Smart cities need a new civic code to succeed // <https://www.wired.com>
16. The United Arab Emirates "Zero Tolerance" Policy Towards Crime // <https://www.lawyersuae.-com/ru/drug-abuse-penalties-and-trafficking-offenses/>
17. Law No. 11 of 2004 Issuing the Penal Code 11 / 2004 // <https://docs.yandex.ru>
18. <https://en.wikipedia.org/wiki/Qatar>
19. <https://www.qatarday.com/cyber-security-laws-in-qatar>
20. <https://www.lexismiddleeast.com/legislativeInsight/Qatar/Qatar-Anti-Terrorism-Law>
21. <https://en.wikipedia.org/wiki/Herman-Goldstein>
22. <https://eco-tourism.expert/ru/news/chislo-inostrannykh-turistov-v-katare-vyroslo-v-pervoy-polovine-2024-goda-na-28>
23. <https://www.travelpulse.com/news/destinations/qatar-tourism-unveils-new-tourism-campaign>
24. <https://vk.com/@economic-on-geri-bekker-ekonomika-vsego>
25. <https://cdn1.byjus.com/wp-content/uploads/2020/08/Code-of-Criminal-Procedure-UPSC.pdf>
26. <https://www.occrp.org/en/news/yakuza-prepares-members-to-resist-japans-new-anti-organized-crime-law>
27. <https://elaw.klri.re.kr>

28. <https://www.eci.com/anti-money-laundering-and-counter-terrorist-financing-act-japan>
29. <https://datacollaborativeforjustice.org/wp-content/uploads/2020/04/CJRA-Report-2-1.pdf>
30. <https://www.ojp.gov/ncjrs/virtual-library/abstracts/community-policing-japan-and-singapore-community-policing>
31. <https://www.global-regulation.com/law/japan/3009836/the-basic-act-on-cybersecurity.html>
32. [https://www.acronymfinder.com/Anti-Terrorism-Special-Measures-Law-\(Japan\)-\(ATSMML\).html](https://www.acronymfinder.com/Anti-Terrorism-Special-Measures-Law-(Japan)-(ATSMML).html)